Annotatsiya: O'zbekistonda HR (Human Resources, ya'ni kadrlar boshqaruvi) sohasidagi zamonaviy trendlar va raqamli transformatsiya mavzusi bugungi kunda mamlakat iqtisodiyoti va boshqaruv tizimining rivojlanishida muhim o'rin egallaydi. Raqamli texnologiyalar tez sur'atlarda keng tarqalib, biznes jarayonlari va davlat idoralarining faoliyatini o'zgartirayotgan bir paytda, HR siyosati ham yangi bosqichga chiqmoqda. Ushbu maqolada O'zbekistonning HR sohasida amalga oshirilayotgan innovatsion o'zgarishlar, jumladan, avtomatlashtirilgan kadrlar boshqaruvi tizimlari, sun'iy intellekt va ma'lumotlar analitikasi asosida ishchi kadrlarni tanlash va baholash, shuningdek, masofaviy ta'lim va mashg'ulotlar orqali malakani oshirish imkoniyatlari batafsil yoritilgan. Bundan tashqari, korxonalar va tashkilotlar uchun samaradorlikni oshirish hamda aholining ish bilan ta'minlanish darajasini yaxshilashga qaratilgan strategik yondashuvlar ham tahlil qilingan. Raqamli transformatsiya natijasida HR jarayonlari aniqroq, xodimlarning motivatsiyasi yuqori, kommunikatsiya va monitoring tizimlari esa samarali bo'lishi ta'minlanmoqda. Bu esa O'zbekiston iqtisodiyoti uchun raqobatbardosh kadrlar bazasini shakllantirish va rivojlantirishga xizmat qilmoqda. Tadqiqot natijalari mamlakatda HR'ni rivojlantirish yo'llarini aniqlashga yordam beradi. Ushbu ishning amaliy ahamiyati esa korxona rahbarlari va kadrlar bo'yicha mutaxassislar uchun foydali strategik tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Ushbu tadqiqotda HR siyosati, raqamli transformatsiya, O'zbekiston sharoitida inson resurslarini boshqarish, sun'iy intellekt, avtomatlashtirish, ishchi kuchi va raqobatbardosh kadrlar masalalari ko'rib chiqilgan.

Abstract: The topic of modern trends and digital transformation of HR (Human Resources) policy in Uzbekistan plays a crucial role in the development of the country's economy and governance systems. In an era where digital technologies are rapidly spreading and transforming business processes and government operations, HR policies are also evolving into a new phase. This paper explores innovative shifts in Uzbekistan's HR sector, including automated human resource management systems, the use of artificial intelligence and data analytics in employee selection and assessment, and opportunities for professional development through remote learning and training programs. Moreover, strategic approaches aimed at improving organizational efficiency and employment rates are examined. As a result of digital transformation, HR processes are becoming more precise, employee motivation is increasing, and effective systems of communication and monitoring are being implemented. Ultimately, this contributes to the formation and growth of a competitive human capital base within Uzbekistan's economy. The findings of the study provide insight into the most pressing methods for advancing HR practices and outline future opportunities. The practical importance of the study lies in offering valuable recommendations and strategic solutions for business leaders and HR specialists.

Key words: This study focuses on HR policy, digital transformation in Uzbekistan, human resource management, artificial intelligence, automation, workforce development, and the creation of competitive talent.

Аннотация: Тема современных тенденций и цифровой трансформации HR-политики в Узбекистане занимает важное место в развитии экономики страны и системы управления. В условиях быстрого распространения цифровых технологий, меняющих бизнес-процессы и работу государственных учреждений, HR-политика также выходит на новый уровень. В настоящем исследовании подробно рассматриваются инновационные изменения в сфере HR в Узбекистане, включая автоматизированные системы управления персоналом, применение искусственного интеллекта и анализа данных для отбора и оценки кадров, а также возможности повышения квалификации посредством дистанционного обучения и тренингов. Также анализируются стратегические подходы, направленные на повышение эффективности организаций и улучшение занятости населения. Цифровая трансформация способствует более высокой точности HR-процессов, усилению мотивации сотрудников, внедрению эффективных коммуникационных и мониторинговых систем. Это, в свою очередь, содействует формированию конкурентоспособной кадровой базы в экономике Узбекистана. Результаты исследования позволяют определить наиболее актуальные методы развития HR-сферы и очертить перспективы на будущее. Практическая значимость работы заключается в предоставлении полезных рекомендаций и стратегических решений для руководителей компаний и специалистов по управлению персоналом.

Ключевые слова: В данной работе рассматриваются вопросы HR-политики, цифровой трансформации, управления персоналом в Узбекистане, а также применение искусственного интеллекта, автоматизации и формирование конкурентоспособного кадрового потенциала.



KIRISH

So'nggi yillarda raqamli texnologiyalar inson resurslarini boshqarish (HR) tizimiga tub o'zgarishlar olib kirmoqda. Sun'iy intellekt, ma'lumotlar tahlili va avtomatlashtirilgan jarayonlar global miqyosda kadrlar siyosatini qayta shakllantirmoqda. O'zbekiston ham bu jarayondan chetda qolmayapti – davlat boshqaruvida, xususi sektor va startaplarda raqamli HR texnologiyalar joriy qilinmoqda. “Elektron hukumat”, “MyHR” platformalari, masofaviy malaka oshirish tizimlari va onlayn baholash usullari orqali xodimlar bilan ishlash samaradorligi oshmoqda. Biroq, ushbu transformatsiya jarayonida muayyan muammolar – texnologik savodxonlik, inson omili, tizimli yondashuv yetishmovchiligi ham mavjud. Ushbu maqsadlarga mushtarak holda shuni aytish joizki, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.09.2023-yildagi “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 492-son qarori¹ O'zbekistonda inson resurslarini boshqarish tizimlarining rivojlanishi ushbu asosiy me'yoriy-huquqiy hujjat hisoblanadi. Maqolada O'zbekistonda HR sohasida raqamli transformatsiyaning dolzarb yo'nalishlari, ularning afzalliklari va mavjud cheklavlari, shuningdek, strategik rivojlanish imkoniyatlari tahlil qilinadi.

Tadqiqotdan maqsad – O'zbekistonda kadrlar boshqaruvi tizimida raqamli innovatsiyalar qanday joriy etilayotganini o'rganish, ilg'or yondashuvlarni aniqlash hamda amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ushbu ish natijalari korxona rahbarlari, HR mutaxassislari va davlat siyosatini ishlab chiquvchilar uchun foydali bo'lishi mumkin.

MAVZUNING DOLZARBLIGI

Raqamli iqtisodiyotning jadal rivojlanishi, global mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi va ishchi kuchining malakaga nisbatan oshayotgan talabi inson resurslarini boshqarish tizimlarining transformatsiyasini taqozo etmoqda. O'zbekistonda ham davlat boshqaruvi va xususi sektor HR strategiyalarini zamonaviy texnologiyalar bilan uyg'unlashtirish bosqichiga kirgan. Ayniqsa, pandemiyadan keyingi davrda masofaviy ish, raqamli monitoring va avtomatlashtirilgan ishchi tanlov tizimlarining zaruriyati oshdi. Shu sababli, O'zbekistonda HR siyosatining raqamli transformatsiyasini o'rganish nafaqat amaliy, balki strategik ahamiyatga ega bo'lib, mamlakatning inson kapitalini rivojlantirish va raqobatbardosh iqtisodiyotni shakllantirishda muhim omil hisoblanadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot O'zbekistonda inson resurslarini boshqarish (HR) sohasida sodir bo'layotgan zamonaviy o'zgarishlar va raqamli transformatsiyaning rivojlanishini ilmiy jihatdan tahlil qiladi. Tadqiqotda uslubi yondashuv sifatida tizimli, taqqoslash, empirik kuzatuv va kontent-tahlil metodlari qo'llanildi. Bu yondashuvlar orqali HR sohasidagi raqamli yangilanishlar, mehnat samaradorligiga ularning ta'siri, davlat siyosati hamda xususi sektor amaliyoti chuqur o'rganildi. Tadqiqotning birinchi bosqichida mavjud ilmiy va amaliy manbalar – O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmon va qarorlari, Mehnat kodeksi, davlat dasturlari, xalqaro tashkilotlar (ILO, UNDP, World Bank) hisobotlari, shu jumladan, so'nggi yillardagi mahalliy va xorijiy ilmiy maqolalar tahlil qilindi. Ushbu bosqichda asosan stol ustida tadqiqot (desk-research) usuli qo'llanib, mavzuga oid ma'lumotlar sistemaga solindi. Ikkinchi bosqichda O'zbekistondagi yetakchi korxonalari, bank tizimi, texnoparklar va startaplar misolida HR sohasiga joriy etilgan raqamli yechimlar – elektron rezyume tanlash tizimlari, onlayn intervyu platformalari, kadrlarni baholash vositalari va masofaviy ta'lim mexanizmlari empirik ravishda ko'rib chiqildi. Bu yerda holat tahlili (case study) usuli qo'llanildi. Uchinchi bosqichda ekspert suhbatlari va onlayn anketalash orqali O'zbekistonda faoliyat yuritayotgan HR mutaxassislarning raqamli o'zgarishlarga munosabati, mavjud muammolari va kelajagi haqidagi fikrlari o'rganildi. Bu bosqichda miqdoriy va sifatli tadqiqot yondashuvlari integratsiya qilindi. Olingan natijalar asosida mavzuga oid yakuniy xulosalar ishlab chiqildi va O'zbekistonda HR sohasini yanada rivojlantirish yo'llari tavsiya qilindi. Tadqiqot jarayonida statistik ma'lumotlar Microsoft Excel va SPSS dasturlari yordamida qayta ishlandi va grafiklar hamda diagrammalar orqali tasvirlandi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Raqamlashtirish jarayonlarini chuqurlashtirish, inson resurslarini samarali boshqarish va oliy ta'lim tizimini zamonaviy bosqichga olib chiqish O'zbekiston Respublikasi davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biridir. Bu borada qator normativ-huquqiy hujjatlar va rasmiy ma'lumotlar manbalarida belgilangan strategik yo'nalishlar ushbu tadqiqotda asosiy nazariy asos sifatida o'rganildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-6079-sonli

¹ O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.09.2023-yildagi “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 492-son qarori. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/6615177>



Farmoni – “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlovchi ushbu Farmon raqamli transformatsiya bo‘yicha davlat siyosatining asosiy yo‘nalishlarini belgilaydi. Hujjatda raqamli infratuzilmani rivojlantirish, davlat boshqaruv tizimini raqamlashtirish, raqamli savodxonlikni oshirish hamda innovatsion texnologiyalarni joriy qilish bo‘yicha aniq chora-tadbirlar keltirilgan. Strategiya doirasida barcha sohalarda, jumladan, ta’lim va inson resurslarini boshqarish sohasida ham raqamli echimlar joriy etilishi nazarda tutilgan [1]. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy veb-sayti (<https://president.uz>) [2] – Mamlakatda amalga oshirilayotgan islohotlar, xususan, raqamli transformatsiya, ta’lim tizimidagi yangilanishlar, inson kapitali va raqamli iqtisodiyotga oid Prezident nutqlari, bayonotlari va topshiriqlari tahlil uchun muhim manba hisoblanadi. Ushbu manba yangiligi, rasmiyligi va keng ko‘lamli statistik hamda analitik ma’lumotlar taqdim etishi bilan ajralib turadi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining PF-5847-sonli Farmoni [3] – “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi”da oliy ta’lim sohasida bosqichma-bosqich raqamlashtirish, uzluksiz ta’limni joriy etish, pedagogik kadrlar salohiyatini oshirish va ta’lim sifatini xalqaro standartlarga yaqinlashtirish kabi vazifalar belgilangan. Mazkur hujjat raqamli mahoratni oshirish va zamonaviy texnologiyalardan foydalangan holda o‘qituvchilarning salohiyatini rivojlantirishni asoslovchi muhim asoslardan biridir. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining VM 492-sonli qarori [4] – Inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirishga doir ushbu qaror davlat xizmatlari tizimida HR boshqaruvini modernizatsiya qilish, kadrlar malakasini oshirish, AKTdan samarali foydalanish va zamonaviy boshqaruv uslublari joriy qilishga qaratilgan. Qaror doirasida xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda mahalliy tizimni transformatsiya qilish choralari belgilangan. Bu esa inson kapitali sifatini oshirishning muhim omili hisoblanadi. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy veb-sayti [5] asosida muallif ishlanmasi – Statistika qo‘mitasining ma’lumotlari orqali o‘qituvchilarning soni, malakasi, raqamli texnologiyalardan foydalanish darajasi kabi ko‘rsatkichlar tahlil qilinadi. Muallif tomonidan tayyorlangan ishlanma esa ushbu statistik ko‘rsatkichlarni tahlil qilish orqali mavjud holatni baholash hamda takliflar ishlab chiqishda metodik asos bo‘lib xizmat qildi.

TAHLIL VA NATIJALAR

O‘zbekiston Respublikasida mehnat resurslarining hajmi 2010–2023 yillar davomida izchil o‘shish tendensiyasini namoyon etdi. (1-jadval)

O'zbekistonda mehnat resurslari soni														
Klassifikator	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022	2023
O'zbekiston Respublikasi	16726	17286,4	17564,3	17814,1	18048	18276,1	18488,9	18666,3	18829,6	18949	19158,2	19334,9	19517,5	19739,6
Qoraqalpog'iston Respublikasi	945,5	973,8	983,5	996,6	1011,9	1026,6	1042,2	1054,6	1064,8	1063	1074,7	1066,1	1067,6	1072,6
Andijon viloyati	1561,2	1597,4	1606,8	1641,7	1667,9	1691,2	1709,1	1722,2	1733,3	1741,7	1754,8	1745,3	1780,8	1799,6
Buxoro viloyati	987,6	1008,3	1025,7	1035,1	1045	1055,8	1065,4	1073,1	1077,8	1081	1067,1	1072,3	1074,7	1089,2
Jizzax viloyati	652,1	678,7	695,5	708,8	723	734,7	746,1	756,2	765,7	764,1	773,8	782,6	791	799,4
Qashqadaryo viloyati	1493,4	1569,8	1612,7	1654,2	1692,5	1725,7	1758,1	1784,6	1806,8	1813,8	1809,8	1811	1813,4	1826,7
Navoiy viloyati	531,6	541,9	544,1	546,8	543,1	540,3	543,5	547,2	552	555,8	555,2	564,5	570,6	584,5
Namangan viloyati	1350,6	1436,5	1468,4	1480	1492,5	1515	1534	1549,5	1564,2	1573,9	1580,4	1586,1	1588,3	1603,9
Samarqand viloyati	1815,7	1902,6	1943,7	1973,8	2003,8	2033,6	2058,2	2079,6	2103,4	2117,1	2125,2	2122	2164,8	2167,6
Surxondaryo viloyati	1174,1	1245,4	1282,7	1320,2	1353	1379,2	1403,1	1423,9	1442,7	1456,9	1452,2	1464,6	1465,4	1486
Sirdaryo viloyati	420,7	432,7	441,8	448,7	456,9	464	470,2	475,2	480,5	484,5	485	489,4	487,4	492,2
Toshkent viloyati	1549,7	1566,9	1579,6	1589,5	1601,9	1609,6	1617,7	1623,9	1627,2	1607,3	1615,4	1622,5	1619,2	1640,7
Farg'ona viloyati	1824,2	1895,2	1931,4	1947,5	1969,5	1996,5	2016,4	2031,1	2043,1	2052,1	2069,3	2083,9	2097,8	2121,7
Xorazm viloyati	900,4	901	918,5	934,2	952,2	969,8	986,7	1000,6	1013,4	1029,6	1044,8	1047,1	1050,9	1064,3
Toshkent shahri	1519,2	1536,2	1529,9	1537	1534,8	1534,1	1538,2	1544,6	1554,7	1608,2	1750,5	1877,5	1945,6	1991,2

1-rasm. O‘zbekistonda mehnat resurslari soni².

2010-yilda mamlakat bo‘yicha umumiy mehnat resurslari soni 16 726 ming kishini tashkil etgan bo‘lsa, 2023-yilga kelib bu ko‘rsatkich 19 739,9 ming kishigacha yetdi. Bu davr mobaynida mehnat resurslarining umumiy soni qariyb 3 million kishiga oshgan bo‘lib, bu mamlakatdagi demografik o‘shish, migratsiya jarayonlari, iqtisodiy faollik darajasi hamda aholi bandligini ta’minlash bo‘yicha olib borilgan islohotlarning natijasidir. Hududlar kesimida olib borilgan tahlil mehnat resurslarining taqsimoti va o‘shish sur’atlarida sezilarli farqlar mavjudligini ko‘rsatadi. Jumladan, Farg‘ona, Samarqand, Andijon viloyatlari va Toshkent shahri mehnat resurslari soni

2 O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi rasmiy web sayti ma’lumotlari asosida muallif ishlanmasi



bo'yicha yuqori ko'rsatkichlarga ega bo'lib, bu hududlarda demografik zichlik, iqtisodiy imkoniyatlar va ish o'rinlari sonining ko'pligi bilan izohlanadi. Masalan, 2023-yilda Farg'ona viloyatida mehnat resurslari soni 2 121,7 ming kishini, Samarqandda 2 167,9 ming kishini, Andijonda 1 799,6 ming kishini va Toshkent shahrida 1 945,6 ming kishini tashkil etdi. Aksincha, Sirdaryo, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog'iston Respublikasi mehnat resurslari soni nisbatan kam bo'lgan hududlar sirasiga kiradi. Bu hududlarda resurslarning o'sish sur'ati past bo'lib, u yerda demografik o'sish darajasi hamda ishlab chiqarish imkoniyatlarining cheklangani seziladi. Masalan, Navoiy viloyatida 2010 yildagi 531,6 ming kishilik mehnat resurslari soni 2023-yilga kelib 584,5 ming kishigacha oshgan, ya'ni 12,3% ga o'sgan. Bu esa respublika bo'yicha o'rtacha ko'rsatkichdan ancha pastdir.

Yillik o'sish dinamikasida 2020–2021 yillarda (COVID-19 pandemiyasi davrida) nisbiy pasayish yoki o'sish sur'atlarining sekinlashgani kuzatiladi. Biroq keyingi yillarda, xususan 2022–2023 yillarda, o'sish qayta faollashgani ko'rinadi. Bu holat pandemiyadan keyingi tiklanish jarayonlari, iqtisodiy barqarorlikni ta'minlash va yangi ish o'rinlarini yaratishga qaratilgan davlat siyosatining samarasidir.

Yakuniy xulosa sifatida, O'zbekiston mehnat bozori har yili ko'payib borayotgan ishchi kuchi resurslariga ega. Bu holat, bir tomondan, mamlakat uchun demografik salohiyatni bildirsa, ikkinchi tomondan, mavjud mehnat resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, ularni hududlar bo'yicha muvozanatli taqsimlash, sifatli bandlik siyosatini amalga oshirish va kasbga yo'naltirish tizimini takomillashtirish zaruratini yuzaga chiqaradi.

XULOSA VA TAKLIFLAR

O'zbekiston Respublikasi inson resurslarini boshqarish sohasida zamonaviy yondashuvlarni joriy etish va ularni amalga oshirish uchun keng ko'lamli islohotlar olib borayotgan davrda. Davlat rahbariyati tomonidan e'lon qilingan Raqamli O'zbekiston³ strategiyasi hamda "Har bir oilada kamida bitta ish joyi" tamoyili asosida yuritilayotgan islohotlar, mamlakatda inson kapitalini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirishga katta e'tibor qaratilganini ko'rsatadi. Bu jarayonning eng muhim omillaridan biri – raqamli transformatsiya, ya'ni HR (Human Resources) boshqaruvida zamonaviy texnologiyalar va innovatsion yechimlardan foydalanish.

Zamonaviy trendlar shuni ko'rsatadiki, inson resurslarini boshqarishda avtomatlashtirish, ma'lumotlar tahlili, sun'iy intellekt va blokcheyn kabi yangi yondashuvlar keng qo'llanila boshlamoqda. Ushbu yo'nalishlar orqali HR jarayonlari soddalashtirilib, xodimlarning mehnat unumdorligi oshirilmoqda, shuningdek, kadrlar tanlash va baholash tizimi yanada ochiq va adolatli bo'lib borayapti. Raqamli texnologiyalar yordamida korxonalarda xodimlarning motivatsiyasi va ta'lim olish imkoniyatlari ham tubdan o'zgarib, bu esa inson resurslarining potensialini maksimal darajada ifodalashiga imkon beradi.

Bundan tashqari, raqamli transformatsiya natijasida yuzaga keladigan global tendentsiyalar – masalan, uzoq vaqtgacha masofaviy ishlash formatining saqlanib qolishi, gig-economy (vaqtinchalik ishchi-kadrlar) rivojlanishi, hamda virtual komandalar bilan ishlashning kengayishi – inson resurslarini boshqarish siyosatiga yangicha yondashuv talab etadi. O'zbekistonda ushbu tendentsiyalarga moslashish uchun maxsus dasturlar va loyihalar ishlab chiqilmoqda. Masalan, elektron davlat xizmatlari platformasi, onlayn ta'lim portallari va raqamli kasb-hunar oshirish markazlari kabi loyihalar inson resurslarini rivojlantirishda muhim rol o'ynaydi.

Shu bilan birga, O'zbekistonda inson resurslarini boshqarishning raqamli transformatsiyasida ba'zi qiyinchiliklar ham mavjud. Ayniqsa, kadrlarning raqamli savodxonligini oshirish, qadimgi yondashuvlardan voz kechish va innovatsion texnologiyalarni qabul qilish sohasida ba'zi psixologik va infrastrukturaviy cheklovlar mavjud. Bunday muammolarni hal qilish uchun davlat, biznes va ta'lim institutlari o'rtasidagi hamkorlikni yanada mustahkamlash zarur.

Natijada, O'zbekiston inson resurslarini boshqarish sohasida zamonaviy trendlarga asoslangan holda, raqamli transformatsiya doirasida muhim yutuqlarga erishmoqda. Mamlakatda e'tibor markazi har doim inson kapitalini rivojlantirish va uni ilg'or texnologiyalar bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lib, bu esa kelajakda O'zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini yanada puxta tarzda barqarorlashtirishga olib keladi. Raqamli transformatsiyaning umumiy samaradorligi esa, avvalambor, inson resurslarining potensialini to'liq namoyon qilish va ularning hayot sifatini oshirishga bog'liq bo'ladi.

Yakuniy xulosa shuki, O'zbekiston inson resurslarini boshqarish siyosatining zamonaviy trendlari va raqamli transformatsiyasi quyidagi asosiy vazifalarni hal qilishga qaratilgan:

Raqamli texnologiyalar yordamida HR jarayonlarini optimallashtirish.

Inson kapitalini rivojlantirish va ularning malakalarini oshirish.

Innovatsion yechimlar orqali ish joylarini modernizatsiya qilish.

Raqamli ekonomika talablari asosida yangi kasblarni shakllantirish va ularga mos kadrlar tayyorlash.

Bu yo'nalishlarda erishilgan yutuqlar O'zbekiston iqtisodiyoti va ijtimoiy sohasini mustaqil ravishda rivojlantirishga va butun dunyo miqyosida raqobatbardosh mamlakatga aylanishga olib keladi.

3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "“Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli Farmoni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>

**Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati**

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining ““Raqamli O'zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 05.10.2020 yildagi PF-6079-sonli Farmoni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-5030957>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti rasmiy web sayti. Manba: <https://president.uz/oz/lists/view/7403>
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 08.10.2019-yildagi “O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida”gi PF-5847-sonli Farmoni. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-4545884>
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 22.09.2023-yildagi “Respublika va mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlarida inson resurslarini boshqarish tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi 492-son qarori. Manba: <https://lex.uz/ru/docs/-6615177>
5. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi rasmiy web sayti ma'lumotlari asosida muallif ishlanmasi



IQTISODIYOT & TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, texnologik, ilmiy, ommabop jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir ALIBEKOV

Sahifalovchi va dizayner: Oloviddin Sobir o'g'li

2025. aprel. № 3. navbatdan tashqari son

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil" iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №566955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.



Jurnal sayti: <https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz>